


SAMARQAND VILOYATIDAGI KORXONA VA TASHKILOTLAR DEMOGRAFIYASI BO'YICHA MA'LUMOT

2026-yil 1-iyul holatiga ko'ra

- I. Korxona va tashkilotlarning soni
- II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar
- III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar
- IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

I. Korxona va tashkilotlarning soni

2026-yil 1-iyul holatiga ko'ra, Samarqand viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni (dehqon va fermer xo'jaliklari bundan mustasno) 43 874 tani tashkil etdi, shundan 37 171 tasi yoki 84,7 foizi kichik korxona va mikrofirmalardir. 2025-yilning shu davriga nisbatan 108,5 foizni, jumladan, kichik biznes va mikrofirmalarda – 108,9 foizni tashkil etdi.



Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni (birlikda).



Soni



O'sish sur'ati

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
2026	43 874	37 476	37 171
2025	40 420	34 349	34 124
2024	40 467	34 553	34 347
2023	43 209	37 465	37 268
2022	51 035	45 162	44 957

Hududlar bo'yicha eng ko'p faol korxona va tashkilotlar Samarqand shahrida – 30,3 foiz, Samarqand – 8,3 foiz, Urgut – 7,8 foiz, Pastdarg'om – 7,4 foiz va Payariq – 5,1 foiz tumanlariga to'g'ri kelmoqda.

Tadbirkorlik va kichik biznes subyektlarining umumiy sonidagi salmoqli ulushi Samarqand shahrida – 31,6 va 31,5 foiz, Samarqand tumanida – 8,8 va 8,8 foiz, Urgut tumanida – 7,5 va 7,6 foiz hamda Pastdarg'omda tumanida – 7,3 foiz va 7,3 foiz to'g'ri keldi

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan:
			Kichik biznes subyektlari
Samarqand viloyati	43 874	37 476	37 171
Samarqand sh.	13 301	11 849	11 698
Kattaqo'rg'on sh. tumanlar	1 374	1 199	1 192
Oqdaryo	1 736	1 472	1 466
Bulung'ur	1 773	1 479	1 468
Jomboy	1 689	1 442	1 425
Ishtixon	2 023	1 678	1 675
Kattaqo'rg'on	2 101	1 711	1 701
Qo'shrabot	1 290	1 001	997
Narpay	1 509	1 200	1 197
Payariq	2 216	1 833	1 818
Pastdarg'om	3 259	2 747	2 730
Paxtachi	1 186	924	919
Samarqand	3 635	3 314	3 282
Nurobod	1 487	1 236	1 230
Urgut	3 443	2 829	2 817
Toyloq	1 852	1 562	1 556

Mavzuga doir ko'rsatkichlar:


[Faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

Korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha ma'lumotlar

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha faoliyat yuritayotgan korxona va tashkilotlarning (tadbirkorlik subyektlari va kichik biznes subyektlarining) eng ko'p qismi "Savdo" tarmog'ida qolmoqda. Ularning ulushi 2026-yil 1-iyul holatiga 35,0 foizni (41,0 foiz va 41,2 foiz) tashkil etdi.



Korxona va tashkilotlar


Ikkinchi o'rinda "Sanoat" 11,5 % (13,5 % va 13,4 %), uchinchi o'rinda "Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar" 8,9 % (10,4 % va 10,4 %).

Birgalikda ushbu uch turdagi faoliyat ularning umumiy sonining 50 % dan ortig'ini tashkil qiladi.

	Korxona va tashkilotlar	shundan:	
		Tadbirkorlik subyektlari	shundan: Kichik biznes subyektlari
Jami	43 874	37 476	37 171
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	2 801	2 761	2 751
Sanoat	5 052	5 043	4 984
Qurilish	2 493	2 471	2 426
Savdo	15 377	15 377	15 318
Tashish va saqlash	1 193	1 187	1 165
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	3 918	3 904	3 882
Axborot va aloqa	821	801	790
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	1 581	1 079	1 071
Boshqa turlar	10 638	4 853	4 784

II. Tadbirkorlik subyektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha ma'lumotlar

2026-yil 1-iyul holatiga ko'ra, 37 476 ta faol tijorat korxonalaridan 27 052 tasini mas'uliyati cheklangan jamiyatlar tashkil etgan bo'lib, ular tashkiliy-huquqiy shakli bo'yicha korxonalar orasida birinchi o'rinni egallab turibdi.



Tadbirkorlik subyektlari


	Tadbirkorlik subyektlari soni (birlikda)	Tadbirkorlik subyektlarining jamiga nisbatan ulushi (foizda)
Mas'uliyati cheklangan jamiyat	27 052	72,2
Xususiy korxonalar	3 714	9,9
Oilaviy korxonalar	6 339	16,9
Aksiyadorlik jamiyati	23	0,1
Boshqalar	348	0,9

Shundan kelib chiqib, MChJlar mamlakatimizda biznes yuritishning eng keng tarqalgan shakli degan xulosaga kelishimiz mumkin.

III. Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

O'zbekistonning yangi tashqi siyosatini asosiy xususiyatlari bu ochiqlik, uzoq muddatli barqaror rivojlanishning ustuvor yo'nalishlariga e'tibor berish, qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnichilik munosabatlarini mustahkamlash, xalqaro hamkorlikni beg'araz asosda kengaytirishdir.

Shuningdek, chet el investitsiyalari ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan 742 ta korxonalardan 270 tasi qo'shma korxonalar va 472 tasi xorijiy korxonalar hisobiga to'g'ri keldi.



Chet el investitsiyasi ishtirokidagi korxona va tashkilotlar

2026-yilning 1-iyul holatiga ko'ra xorijiy investitsiyalar ishtirokida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarning soni 2025-yilning mos davriga nisbatan 121 taga oshgan. Bu asosan, sanoat sohasidagi korxonalar sonining 218 tadan 257 taga, (o'sish 39 taga), savdo sohasida 169 tadan 185 taga (o'sish 16 taga), hamda tashish va saqlashva sohasida 23 tadan 27 taga (o'sish 4 taga) ko'payishi hisobiga to'g'ri kelmoqda.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	742	270	472
Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi	41	22	19
Sanoat	257	123	134
Qurilish	51	17	34
Savdo	185	46	139
Tashish va saqlash	27	9	18
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	47	11	36
Axborot va aloqa	34	4	30
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish	17	7	10
Boshqa turlar	83	31	52

Ayrim davlatlar kesimida faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar

Viloyatimizda faoliyat ko'rsatayotgan chet el investitsiyalari ishtirokidagi korxona va tashkilotlar tahlil qilinganda, yetakchi o'rinni 224 ta korxona bilan Xitoy davlati egalladi. Bu viloyatdagi xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar umumiy sonining 30,2 foizini tashkil etdi. Viloyat iqtisodiyotiga o'z kapitalini kiritib hissasini qo'shaytgan mamlakatlar orasida Turkiya (16,0 %), Rossiya Federatsiyasi (14,1 %), Janubiy Koreya (4,0 %) va Tojikiston (3,5 %) ham alohida o'rin egallaydi.

	Jami:	shundan:	
		Qo'shma korxona	Xorijiy korxona
Jami:	742	270	472
Xitoy	224	72	152
Turkiya	119	36	83
Rossiya	105	37	68
Janubiy Koreya	30	15	15
Tojikiston	26	5	21
Hindiston	25	4	21
AQSH	22	16	6
Qozog'iston	20	5	15
BAA	16	3	13
Germaniya	15	12	3
Afg'oniston	14	6	8
Ozarbayjon	10	5	5
Pokiston	9	1	8
Yaponiya	8	4	4
Buyuk Britaniya	7	5	2
Turkmaniston	4	2	2
Belorusiya	3	1	2
Qirg'iz Respublikasi	3	-	3
Boshqa Davlatlar	82	41	41

IV. Korxona va tashkilotlar demografiyasiga oid metama'lumotlar va tushunchalar

Registrlarni yuritish bo'yicha statistik faoliyatni amalga oshirish uchun asos bo'lib Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28- sentabrdagi "Korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registrini yuritish va uning asosida davlat xizmatini ko'rsatishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 539-son qaroriga muvofiq Korxonalar va tashkilotlarning ma'lumotlari statistik tasniflagichlarga asosan shakllantiriladi..

Korxona va tashkilotlarning yagona davlat registri – real vaqt rejimida yangilab boriladigan ma'lumotlardan iborat bo'lgan axborot-ma'lumotnoma tusidagi avtomatlashtirilgan tizim hisoblanib, yagona klassifikatsiyalar tizimi asosida korxonalar va tashkilotlarning davlat hisobini va ularni identifikatsiyalashtirishni ta'minlaydi. Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligining Davlat xizmatlari markazi ma'lumotlar bazasi asosida 2026-yil 1-iyul holatiga ko'ra (fermer va dehqon xo'jaliklarisiz) shakllantirildi..

Metama'lumot uchun havolalar:

[Metama'lumot Korxonalar va tashkilotlar soni](#)

[Glossariy](#)

[Statistik klassifikatsiyalar](#)

Mavzuga doir ko'rsatkichlar::

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xorijiy kapital ishtirokidagi korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan xususiy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan mas'uliyati cheklangan jamiyati soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan oilaviy korxonalar soni \(oylik\)](#)

[Yangi tashkil etilgan korxona va tashkilotlar soni \(iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha, oylik\)](#)

[Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sanoat yo'nalishida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Qurilish faoliyati bilan shug'ullanuvchi yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Savdo sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Tashish va saqlash xizmatlari sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Axborot va aloqa sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)

[Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar sohasida yangi tashkil qilingan korxona va tashkilotlar soni \(oylik\)](#)



Tayyorlash uchun mas'ul:
Raqamlashtirish va Statistik
registrnlarni yuritish bo'limi

Ijrochi:
F. Zulfukarov
66 231-12-58 (3060)

Maznil:
140100, Samarqand sh.,
U.Tursunov ko'chasi, 82-uy
